

KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

Mavlonov Ozod

“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati

ORCID: 0009-0009-7463-3795

ozodmavlonov5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy mohiyati hamda uning ichki va tashqi omillar bilan bog'liqligi yoritildi. Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar moliyaviy va nomoliyaviy guruhlariga ajratilib, ularni tartibga solish mexanizmi ishlab chiqildi. Shuningdek, qarzlar va pul oqimlarini samarali boshqarish hamda investitsion siyosatni takomillashtirish korxonalarning to'lovga qobiliyati va investitsion jozibadorligini oshirishini tasdiqladi. Olingan xulosalar davlat ishtirokidagi korxonalar uchun uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, davlat ishtirokidagi korxonalar, moliyaviy omillar, nomoliyaviy omillar, korporativ boshqaruv.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ

Мавлонов Озод

Акционерное общество «Региональные электрические сети»

Аннотация. В данной статье проведён теоретический и практический анализ факторов, влияющих на финансовую устойчивость предприятий с государственным участием. В исследовании раскрыта экономическая сущность финансовой устойчивости и её взаимосвязь с внутренними и внешними факторами. Факторы, влияющие на финансовую устойчивость, классифицированы на финансовые и нефинансовые группы, а также разработан механизм их регулирования. Установлено, что эффективное управление задолженностью и денежными потоками, а также совершенствование инвестиционной политики способствуют повышению платёжеспособности и инвестиционной привлекательности предприятий. Полученные выводы имеют практическое значение при разработке долгосрочных стратегий для предприятий с государственным участием.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, предприятия с государственным участием, финансовые факторы, нефинансовые факторы, корпоративное управление.

ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES

Mavlonov Ozod

Joint Stock Company «Regional electrical networks»

Abstract. This article provides a theoretical and practical analysis of factors affecting the financial stability of state-owned enterprises. The study examines the economic essence of financial stability and its relationship with internal and external factors. Factors influencing financial stability are classified into financial and non-financial groups, and a mechanism for their regulation is developed. The findings confirm that effective management of liabilities and cash flows, as well as the improvement of investment policy, enhance the solvency and investment attractiveness of enterprises. The conclusions obtained are of practical importance for developing long-term strategies for state-owned enterprises.

Keywords: financial stability, state-owned enterprises, financial factors, non-financial factors, corporate governance.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining ko'plab mamlakatlari tomonidan issiqxona gazlarini kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni yo'lga quyish orqali yashil iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish bilan bir qatorda, tarmoq korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirishda mavjud resurslardan samarali foydalanish yo'llarini muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Davlat ishtirokidagi korxonalarida moliyaviy faoliyatini sog'lomlashtirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalaridan samarali foydalanish, aktivlari va kapitalining samaradorligini, daromadlilik darajasini oshirish, debitor va kreditor qarzlarni samarali boshqarish orqali barqaror to'lov qobiliyatini saqlash hamda ushbu korxonalarda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga joriy qilish kabi jihatlar dolzarblik kasb etmoqda.

Har bir korxonaning uzoq va barqaror rivojlanishida uning moliyaviy barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati xususiy sektor korxonalaridan farq qilsada, asosiy maqsadi barqaror o'sishga erishishdir. Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash o'z navbatida mamlakat iqtisodiy holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Davlat ishtirokidagi bu kabi korxonalarning moliyaviy inqirozlarga duch kelishi davlat budjetidan sezilarli budjet mablag'larini talab qilishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Olimlar tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalarning mavjudligi sabablari keng muhokamalarga sabab bo'ladi hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosiy nazariy qarashlari ham bir biridan farq qiladi.

1-jadval

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi bo'yicha olimalarning qarashlari

№	Mualliflar	Ta'riflar
1	Abryutina (2016)	korxonalar iqtisodiy imkoniyatlarini saqlab qolish, bozor kon'yunkturasining keskin o'zgarishlariga javob berishi hamda investitsion jozibadorligini ta'minlashi uning moliyaviy barqarorligida namoyon bo'ladi.
2	Pavlova (2017)	majburiyatlarini ta'minlash bilan birga, korxonalar o'zlarining innovatsion va investitsion loyihalarini ham amalga oshirish imkoniyatlarini ham hisobga olish kerak
3	Saviskaya (2007)	xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi, o'z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash qobiliyati, bu uning doimiy to'lov qobiliyati va maqbul darajada investitsion jozibadorligi kafolatlanishini ta'kidlab o'tgan
4	Pardaev va Isroilov (1999)	korxona o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbati sifatida ifodalab, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini o'z mablag'lar (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar, harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar, asosiy vositalar va aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar hisoblanishini ta'kidlab o'tgan
5	Bank, (2006)	korxonalar maqbul xavf sharoitida uzluksiz ishlash, barqaror rentabellikka yerishish va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash qobiliyatini ta'minlaydigan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ularni taqsimlash va qayta taqsimlash holati ekinligini ta'kidlagan
6	Karlin (1997)	moliyaviy barqarorlikni baholash uchun sarmoya tarkibining o'zgarishini uning joylashuvi va xosil bo'lish manbalari; sarmoyadan foydalanish samaradorligi va intensivligi, to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati, moliyaviy barqarorlik zaxirasi bo'yicha tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanadi
7	Mandel (1989)	barqaror o'sish koeffitsiyentlarini va likvidlilik, moliyaviy mustaqillik, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik, aylanuvchanlik va rentabellik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi uning omillarga asoslangan modelini ko'rib chiqadi
8	Muallif	Barqaror ijobiy ko'rsatkichlarga erishish orqali bozor o'zgarishlariga javob bergan holda o'zining majburiyatlariga o'z vaqtida javob bergan xolda faol tarzda tovar va xizmatlarini taklif qilishi

Manba: tahlillar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Shuningdek, korxonalarning moliyaviy barqarorligi tushunchasi keng doiradagi iqtisodiy tushuncha hisoblanadi. Shuningdek, korxona faoliyatining turi, tashkiliy-huquqiy shakli, boshqarilishi hamda xizmat ko'rsatish hududidan kelib chiqqan holda farq qilishi mumkin. Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalar uchun moliyaviy faoliyati bir vaqtda xususiy korxona faoliyatidan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy maqolada korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili va amaliy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida olimlarning moliyaviy barqarorlik bo'yicha tahlillari va nazariy qarashlari o'rganilgan. Hamda ushbu o'rganishlar asosida moliyaviy barqarorlikga ta'sir qiluvchi omillar guruhlangan hamda ularni ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralar ishlab chiqish belgilangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Hukumatlar uchun davlat ishtirokidagi korxonalari ijtimoiy-iqtisodiy tovar va xizmatlarni taqdim qilgan holda tijorat faoliyatini amalga oshiradi. Shu bilan birga, barqaror moliyaviy faoliyati orqali davlat budjetiga soliqlar va dividend hisobidan daromad keltirishi mumkin. Samarasiz faoliyat yuritayotgan ushbu korxonalar davlat budjeti uchun fiskal risklarni keltirib chiqarishi mumkin.



1-rasm. Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar

Manba: O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar asosan 2-guruhga ajratish mumkin: tashqi va ichki omillar. Bunda, barcha korxonalar kabi tashqi omillarni korxonalar prognoz qilishi yoki boshqarish imkoniyatlari mavjud emas. Lekin, korxonalar o'zining strategik faoliyatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kirishi yoki mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda tezkor qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, ba'zi tashqi omillar ushbu korxonalarning rivojlanishi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ichki omillar korxona tomonidan boshqarish hamda tartibga solish imkoniyatlari mavjud bo'lgan omillar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu korxonalarning ichki tartib qoidalariga hukumat bilvosita va bevosita aralashishi mumkin.



2-rasm. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning moliyaviy va nomoliyaviy omillarning tartibga solish mexanizmi

Manba: O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ularning moliyaviy barqarorligiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishda davlat budjetidan qo'shimcha mablag'larni, imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlarini berish orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hamda narx siyosatini o'rnatishdagi ishtiroki orqali salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tahlillar bo'yicha ta'sir qiluvchi omillarning 2 guruhga ajratish orqali ularni boshqarish maqsadga muvofiq hisoblamiz. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad,

korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning mavjud uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati ta'minlanadi.

Ushbu 2-rasmda keltirilgan tartibga solish mexanizmi o'z navbatida, Davlat ishtirokidagi korxonalarning korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu sababli ham, davlat ishtirokidagi elektr tarmoqlari korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda unga ta'sir qiluvchi omillarni guruhlariga jamlash orqali ularga ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash orqali iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa va takliflar.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko'p omilli va murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, u ichki va tashqi, shuningdek, moliyaviy va nomoliyaviy omillarning o'zaro uyg'un ta'siri natijasida shakllanadi. Tashqi omillar korxona tomonidan bevosita boshqarib bo'lmaydigan sharoitlarni ifodalasa, ichki omillar samarali boshqaruv orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, nomoliyaviy omillar, xususan, korporativ boshqaruv sifati, kadrlar siyosati, davlatning iqtisodiy siyosati va institutsional muhit moliyaviy natijalarning barqaror shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, moliyaviy omillar - debitor va kreditor qarzlarini samarali boshqarish, pul oqimlarining muvozanatini ta'minlash, investitsion va rag'batlantiruvchi siyosatni takomillashtirish - korxonaning to'lovga qobiliyati va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun moliyaviy va nomoliyaviy omillarni kompleks tarzda tartibga solish, ularni strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilish hamda raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarur. Mazkur yondashuv korxonalarning bozor kon'yunkturasidagi keskin o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Абрютина М.С. (2016) «Современные подходы к оценке финансовой устойчивости и платежеспособности компании» / М.С. Абрютина // Финансовый менеджмент. – № 6. – с.23-27.

Банк, В.Р. (2006) Финансовый анализ: учеб. пособие. / Банк С. В., Тараскина Л. В. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, – 344 с.

Карлин Т.П. (1997) Качество жизни и конкурентоспособность российских предприятий//Материалы научно-практической конференции. –Орел.: ГТУ, –С. 103.

Мандель И.Д. (1989) Многомерный статистический анализ экономических процессов. –СПб.: Питер. -318.

Павлова И.А. (2017) «Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя». // Финансы и кредит, 23 (июнь), с. 71-75.

Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И. (1999) Молиявий таҳлил: (Услубий кўргазмалар ва тавсиялар альбоми). - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, – Б. 197.

Савицкая Г.В. (2007) Анализ хозяйственной деятельности предприятия. –Минск, – 704 с.